

ZAMONAVIY XOR IJROCHILIGI MUAMMOLARI XUSUSIDA

*Malikova Dilbar Mirsagdiyevna
O'zDSMI "Vokal" kafedrasi professori v.b.,
"Do'stlik" ordeni sohibasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xor san'ati ijrochiligi, uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, professional xor dirijyorlari vazifalari, jamoalarning kontsert chiqishlaridagi innovatsion yangiliklar va zamonaviy xor ijrochiligidagi muammolar xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: a kapella, xor, xormeyster, dirijyor, auftakt, ritm, temp, diktsiya, dinamika, repertuar, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается и анализируется исполнительское хоровое искусство, его роль в воспитании подрастающего поколения, функции хоровых дирижеров, инновационные исполнительские новшества профессиональных хоров и проблемы современного хорового исполнительства.

Ключевые слова: a capella, chorus, choirmaster, conductor, auftakt, rhythm, tempo, diction, dynamics, repertoire, innovation.

Annotation: This article discusses and analyzes the performing choral art, its role in the upbringing of the younger generation, the function of choral conductors, innovative performing innovations of professional choirs and the problems of modern choral performance.

Key words: a capella, chorus, choirmaster, conductor, auftakt, rhythm, tempo, diction, dynamics, repertoire, innovation.

Ma'lumki, estetik hissiyotni tarbiyalash, milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy qadriyatlar, an'analarga sadoqat, ona zaminga hurmat – bularning barchasi insonga uning yoshlik davrlaridan boshlab singdiriladi.

Kuy, qo'shiq insonning inson bo'lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy - ma'naviy omil hisoblanadi. Qo'shiq insoniyatning ichki dunyosini boyitadi va hayotini go'zallik sari chorlaydi.

San'at turlari va ularning ahamiyati haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagicha fikrlar yozganlar: "Biz bugungi kunda ta'lif - tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va xaykaltaroshlik sa'natigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur". [1,129]

"Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan ko'plab qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi" [2,1].

President Sh.M.Mirziyoyev xor san'atiga ham katta e'tibor berib kelayotganlarini yana bir dalili bo'lib 2018-2019 o'quv yildan O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida "Xor honandaligi" bo'limini tashkil etilishidir. Bu albatta xor san'atini kelajakda yanada

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

rivojlanishiga va professional xor jamoalarini etuk, malakali mutaxasislar bilan ta'min etishda katta yordam beradi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalish ishlab chiqildi. San'at va madaniyatimiz sohasi uchun aynan beshinchisi: **ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish**, tegishlidir.

Prezidentimiz farmoniga muvofiq tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida barcha sohalar bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar aniq belgilab berilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nihoyatda muhim bo'lib, u nafaqat mamlakatimizning besh yillik rivojlanish yo'li va yo'nalishlari, balki undan keyingi ravnaqi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlanib, e'lon qilingach, hech qancha vaqt o'tmasdan, 2 fevral kuni yana bir muhim hujjat "**Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi qarorini imzolanishi davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviyat, madaniyat, san'at sohalariga jiddiy e'tibor qaratilayotganini yana bir bor tasdig'idir.

2022 yil 2 fevraldag'i **Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi** qarorida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aynan musiqa fani, uning o'quvchilarni tarbiyasidagi ahamiyati borasida alohida to'xtalib qator vazifalarni ta'kidlab o'tdilar:

"Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdag'i ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "**Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili**"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

1. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'doddarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin" [3,1].

Xor san'ati ham insonlarni ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga, ularni birlashtirishga va insonlarda estetik zavq uyg'ota oladigan san'at turlaridan biridir. Bu san'at sog'lom yosh avlodni, yoshlarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Xor qo'shiqchiligi bu inson badiiy faoliyatining eng keng shaklidir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlarni jadal badiiy faoliyatga va umumiylashuvga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish orttirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularga ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi.

Biz bugungi kunda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini yanada ko'z qorachig'dek asrab-avaylash, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Haqiqatdan ham respublikamizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol bo‘lib yetishishini ta’minalash yo‘lidagi ishlarining muhim jabhalaridan biri bo‘lmish bu san’at turi zamon talabiga javob bera olyaptimi?

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan baxra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo‘lishni o‘rganib olishimiz lozim. O‘zbekistonda musiqa, tasviri, monumental va amaliy san’at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodify emas. Bu san’at turlari chet elda keng e’tirof etilgan. Milliy va jahon eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni manaviy tarbiyalashning asosi bo‘lmog‘i kerak” deb takidlaganlar.[4,150]

Xor jamoalari haqida so‘z yuritilganda eng avvalo dirijor, xormeyster, yohud badiiy rahbar va bosh dirijorning jamoa oldidagi katta mas’uliyatini ta’kidlab o‘tish zarur deb o‘layman.

Dirijor - xor artistlarini musiqiy asarni uyg‘unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab birga tugatishlari, guruuhlar bir maromda kuylashni boshlashlarini, pauzalarni vaqtida ushlab, ijroda yagona ritm va tempga moslashtirishi, turli dinamik tuslarni vaqtida ko‘rsatishi, ularni ijroga yo‘naltirish uchun belgi - **auftakt** berishi va boshqarishi lozim. Bu mezonlar dirijor hox yosh, hox qari, tajribali yoki o‘z faoliyatini endi boshlayotgan bo‘lsin - barchasiga barobar tegishlidir. Musiqa sadolarini yaxshi **ilga‘ash**, ritm va temp hissi, musiqiy xotira, temperament va tasavvur kabi xususiyatlardan tashqari dirijor yana bir qator alohida jihatlarga ham ega bo‘lishi kerak. Dirijorning qo‘l harakatlari mukammal darajada ma’nodor bo‘lishi, qo‘llarning maqsadga muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yordamida xor artistlariga musiqiy asarning mohiyatini yetkaza olishi lozimdir. Bularning bari dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan og‘ir vaziyatlardan muvaffaqiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo‘ladi albatta.

Dirijorda tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, intizomlilik, tashkilotchilik iste’dodi uyg‘unlashgan bo‘lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan xushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish quvvati namoyon bo‘lishi kerak. Xor bilan yaxshi ishlash uchun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo‘lishi lozim. Bunga qo‘srimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik va prinsipiallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy dirijorni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Dirijorning vazifasi - xorni o‘z irodasiga bo‘ysundirgan holda barcha xor artistlarini musiqani yakdil his qilishini ta’minalash, ularni birlashtirib bir qancha turli shaxsdan o‘zining har bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jamoa, organizm yaratishdan iborat. U asar ustida ishlashda bor mahoratini ishga solishi, dirijorlik bilimlaridan to‘g‘ri foydalana bilishi shartdir.

Xor dirijori tanlangan asarni ijodiy talqin qilish bilan birga o‘zining badiiy intilishi va harakatlari doirasida jamoasiga ijodiy ta’sir ko‘rsata olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Xor ijrochiligining an’anaviy ko‘rinishi zamonaviy tinglovchi uchun zerikarli bo‘lib qolyapti shekilli, shu bois professional xor jamoalari konsert dasturlarida tinglovchilar soni keskin kamayib bormoqda.

Bugungi kundagi BMSMlardagi bolalar xor jamoalarini ahvoli borasida to‘xtalsak. Ma’lum bo‘lishicha Toshkent shahrining o‘zida 30 ta BMSMlari mavjud. Qarang, 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida Toshkent shahridagi deyarli barcha BMSMlar qaytadan ta’mirdan chiqarildi va juda chiroyli holatga keltirildi. Sinf xonalari etarli, juda keng o‘quv zallari mavjud. Nima uchun shuncha maktablarda xor sinfi uchun xonalar bo‘la turib, o‘qituvchilari yilda bir marotaba o‘tkazib kelinadigan ko‘rik tanlovida qatnashmaydilar, tayyorgarlik ko‘rmaydilar? Biz qachon bitiruvchilarimiz mahsulini tinglab tomosha qilamiz? Qachon ularning olib borayaotgan ishlarini to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilamiz, ularni mehnatlari natijalarini sarhisob

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

qilamiz? Nima uchun oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishni tugatgan talabalar xor artisti bo‘lib faoliyat ko‘rsatib kelyaptilar? Nima uchun ularda xor san’atiga bo‘lgan mehr, fidoiylik yo‘q?

Ahir ularni davlatimiz mutaxassis sifatida o‘qitguncha qanchadah-qancha mablag‘ sarfladiku? Kontraktda o‘qigan bo‘lsalar ham yakka darslar uchun professor-o‘ituvchilarga bilasizmi davlat tomonidan har bir talabaga aslida qancha mablag‘ oylik maoshi etib to‘lanishini? O‘quv jarayonini qayerida bee’tiborlik ketyapti? Nima uchun bitiruvchilarni xor bilan ishlashga yuraklari dov bermayapti?

Masalan, har yili kamida 10 tadan talaba tugatganda ham bugungi kunda BMSMlarning barchasida hech qanday to‘sqliarsiz 30 ta bolalar xori jaranglashi kerak edi menimcha! Ming afsuslar bo‘lsinki bu yilgi ko‘rik tanlovda men hay’at raisi edim, bilasizmi 30 ta xor jamoalaridan atigi 7 tasi qatnashdi! Bu ayanchli ahvolni ko‘rish kerak edi, qani yosh mutaxassislar? Bilasizmi, men ham xormeyster, dirijor, ustozman lekin bugungi ahvoldan xor san’atimizni shunday darajaga tushib ketganini ko‘rib yuragim ezilib, ko‘zlarimga yosh keldi!

Yosh mutaxassislarni bunday bee’tibor ishslashlarida, mas’uliyatsizliklari natijasida albatta **xor san’ati o‘zi kerakmi yoki yo‘qmi degan fikrlar tug‘iladi-da! Mana bu eng muhim va juda katta muammo!**

Mana Prezidentimizning san’at va madaniyatni yanada rivojlantirish maqsadida qator qarorlar belgilab beryaptilar, kim tumanlarga borib filarmoniyalarda xor jamoalarini tuzadi, qani byudjetda o‘qib bitirgan talabalar?

Biz texnika asrining globallashuv davrida barcha sohalar raqamlashtirilib kelinayotganini guvohi bo‘lyapmiz. Tabiiyki, rivojlanishning bunday ko‘rinishi albatta san’at sohasida ham namoyon bo‘lyapti. Demakki, san’atning barcha turdagи janrlari raqamlashtirish jarayonida. Ayniqsa bugungi kunda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan professional xor jamoalarining har birini o‘z ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari mavjud. Ushbu ijtimoiy tarmoqlar orqali xor san’ati muxlislari jamoalarning ijodi bilan nafaqat yaqindan tanishib borishi, balki ularning ish jarayonlarini ham kuzatib borish imkoniyatiga egadirlar. Natijada tinglovchi hamda ijodkorlar o‘rtasida bevosita ko‘prik bo‘lib xizmat qilib kelayotgan ijtimoiy tarmoqlar yordamida yangi repertuar shakllanishi, zamon bilan hamnafaslik va o‘ziga xos ijodiy muhit yaratilyapti.

Bugungi kunda biz xor jamoalarimizning chiqishlarida estrada shou-tomoshalari kabi maxsus rangli chiroqlar, sahna dekorasiya bezaklari, LED ekran, sahna kiyimlarini zamonaviyроq ko‘rinishi, xor joylashuvini muntazam o‘zgartirib turilishi, turli raqs elementlari bilan jamoani harakatlanib turishini guvohi bo‘lyapmiz.

Ta’kidlash joizki yosh, ijodkor jamoalardan “Davlat simfonik orkestri” qoshida tashkil etilgan xor jamoasi (rahbari Y.Xusnutdinova), “Bulbulcha” bolalar ashula va raqs ansambl qoshidagi o‘smirlar xori (rahbari O‘.Shokarimov), Republikada xizmat ko‘rsatgan xor jamoasi (rahbari G. Malikova), O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi qoshidagi MTS (rahbari S.Kadirova) xor jamoalarining kontsert chiqishlari yildan-yilga dirijorlarining o‘ziga xos yondashuvi va **innovatsion yangiliklari bilan biroz yiroqlashib qolgan bu san’at muxlislarini yana** qaytadan kontsert zallariga jalb etib kelyaptilar. Bu jamoalarning kontsert chiqishlari yuqorida ta’kidlangan zamonaviy xor ijrochilik talablarini aynan o‘zida mujassamlashtirib kelmoqda.

Eng avvalo ularning rang – barang repertuari ustida to‘xtalsak. Repertuar dasturi Yevropa, o‘zbek kompozitorlarning XV-XXI asrlarda yaratilgan turli janr va xarakterdagi klassik hamda zamonaviy asarlardan tashkil topgan. Konsert jarayonida turlicha joylashuvlar: alohida ayollar yoki erkaklar guruhlari, yoki sahnnaviy bir ko‘rinishlar, soprano, alt, tenor, bariton, bass ovozlarini noan’anaviy joylashuvlari ko‘rinishlari hamda duet, trio, kvartet chiqishlari o‘rtasidagi kontsert jarayoni vaqt oralig‘ida xor jamoasi sahnnaviy liboslarini o‘zgartirib chiqishlari tinglovchilarni o‘ziga jalb etdi. Asarlar xarakteriga qarab sahnnaviy ko‘rinish va raqs elementlari turli millat urf-odatlari, hatti-harakatlari, an’analari bilan uyg‘unlikda sahnlashtirilgan. Goho asarlarni tinglab turib, bu sahnnaviy joylashuvning

ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

noan'anaviy, tez-tez turli geometrik shakllarda o'zgarishlari xor ovozlaridagi ijro sifatiga yaxshigina xalaqit berayotganini ham ko'rdik. To'g'ri dirijorlarning ritmik, dinamik ansambllar va badiiy ijro uyg'unligiga erishish uchun jamoa bilan asarlar ijrosida o'ta yuqori professional darajada ishlaganliklari yaqqol ko'rinish turibdi, lekin bu XOR - ku, ahula va raqs ansambllari emas-ku. Har bir yangilikni qo'llashda **me'yor bo'lishi kerakmasmi?**

Biz xor san'atini **shoularga** aylanib qolishini to'xtaishimiz kerak deb o'ylayman. Xor ijrosidagi qator o'ziga xos jarang, sokin ijro, ovozlar mushtarakligi, ohanglarning bog'lanib quyilib kelishi menimcha tinglovchilarga estetik zavq baxshida eta oladiku?

Bugungi kun talablari bo'yicha bo'lajak xormeyster va dirijorlardan nafaqat mutaxasislik ko'nikmalari va malaka talablari, balki ulardan bir qator shaxsiy dunyoqarash, estetik ahloqiy madaniyat, intellekt kabi sifatlar ham talab etiladi. Bularsiz dirijor na tajriba egallashi, na xor jamoasi bilan ishlashdagi amaliyotida ularni qo'llay olmasligi mumkin. Yuqorida qayd etilgan talablarni o'ta professional dirijor, kuchli va bilimli shaxsgina amalga oshirishi mumkin.

Xor ijrochiligi san'ati sog'lom yosh avlodni ma'naviy saviyasini, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorligini o'stirishga xizmat qiladi.

Biz o'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini yanada ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Respublikamiz taraqqiyoti o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z Vatanidan faxrlanish tuyg'usiga ega etib tarbiyalash – zamonamizning dolzARB mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Musiqa yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar – har qanday mamlakatning ertasi, kuch-qudrati, suyangan tog'i. Ular har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, ruhan va ma'nан sog'lom, bilimli, yuksak tafakkurli bo'lib ulg'aysa, el-yurtning ham kelajagi yorug', barqaror va farovon bo'ladi.

Xulosa qilib biz shuni aytishimiz va yodimizda tutishimiz kerakki, ustozlarimiz tomonidan tamal toshi etib qo'yilgan milliy ijro yo'nalishi mohiyati va maqsadini nafaqat tinglovchilarga, balki o'rta va oliy ta'lim o'quv muassasalaridagi o'quvchi va talabalar xor jamoalariga, kelajak avlodga yetkazib berish nafaqat professional xor dirijorlari, xor fanlari o'qituvchilari, o'rta va oliy ta'lim professor – o'qituvchilari uchun ham farzdir!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch Toshkent Manaviyat 2008
2. PF-60-son 28.01.2022. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. 2022.
3. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Yangi O'zbekiston gazetasi № 25 (547), 2022 yil 4 fevral.
4. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida Toshkent O'zbekiston 1997
5. Harakatlar strategiyasi 2017-2021 Toshkent 2017
6. Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati Toshkent Musiqa 2009
7. Malikova D.M. Zamonaviy xor ijrochiligi: an'anaviylik va innovatsiya. Musiqa ilmiy-uslubiy jurnal. 4 (16) 2021